



**15-16 APREL  
2022**

**TOSHKENT  
O‘ZBEKISTON**

**“GEOGRAFIK TADQIQOTLAR: INNOVATSION G‘OYALAR  
VA RIVOJLANISH ISTIQBOLLARI”**

**XALQARO ILMIY-AMALIY KONFERENSIYA**



**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O‘RTA MAXSUS TA‘LIM  
VAZIRLIGI  
MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI FANLAR AKADEMIYASI  
G.O. MAVLONOV NOMIDAGI SEYSMOLOGIYA INSTITUTI**

**O‘ZBEKISTON GEOGRAFIYA JAMIYATI**

**“TADQIQOT.UZ”  
XALQARO ILMIIY JURNALLAR PORTALI**

**GEOGRAFIK TADQIQOTLAR:  
INNOVATSION G‘OYALAR VA RIVOJLANISH  
ISTIQBOLLARI**

**II  
XALQARO ILMIIY-AMALIIY KONFERENSIYA  
MATERIALLARI**

**TO‘PLAMI**

**Toshkent - 2023**

**Geografik tadqiqotlar: innovatsion g'oyalar va rivojlanish istiqbollari:**  
II Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari to'plam (15–16-aprel, 2022-yil,  
Toshkent). –Toshkent.: TADQIQOT.UZ, 2023. – 847 bet.



<http://doi.org/10.5281/zenodo.4751426>

To'plamda keltirilgan ilmiy tadqiqot ishlari natijalaridan tabiiy geografiya, atrof-muhitni muhofaza qilish va tabiiy resurslardan oqilona foydalanish, iqtisodiy va ijtimoiy geografiya, xorijiy mamlakatlar iqtisodiyoti va mamlakatshunoslik, tashqi iqtisodiy faoliyat, turizm, gidrologiya, gidrometeorologiya, geologiya, geodeziya, kartografiya hamda geoinformatika sohalaridagi mutaxassislar, ilmiy xodimlar, mustaqil izlanuvchilar, doktorantlar, magistratura va bakalavriat talabalari, umumiy o'rta ta'lim maktablari, o'rta maxsus, kasb-hunar ta'limi muassasalari o'qituvchilari hamda geografiya faniga qiziquvchilar foydalanishlari mumkin.

**Tahrir kengashi:**

g.f.d., professor Hikmatov F.H.  
g.f.d., katta ilmiy xodim Rafiqov V.A.  
g.f.n., dotsent Sharipov Sh.M.

**Kengash a'zolari:**

g.f.n., dotsent Tashtayeva S.K.  
g.f.n., dotsent Shomurodova N.T.  
PhD, dotsent Shomurodova Sh.G'.  
PhD, dotsent Prenov Sh.M.  
PhD, dotsent Raxmonov D.N.  
PhD, dotsent Raxmonov K.R.  
PhD, dotsent Umirzoqov G'.O'.

**Mas'ul muharrir:**

Ibragimov Sh.U.

©Mualliflar jamoasi

©tadqiqot.uz

## NAVOIY VILOYATIDA QORAMOLCHILIKNI RIVOJLANTIRISHNING IQTISODIY-GEOGRAFIK JIHATLARI

**Xudoyberdiyeva Iroda Abduxomidovna**

tayanch doktorant

Navoiy davlat pedagogika instituti

e-mail: irodandpi@gmail.com

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada Navoiy viloyati chorvachiligining qoramolchilik tarmog'ini respublikada tutgan o'rni o'rganilgan. Viloyatda qoramolchilikning hududlarda soni jihatidan 2000–2020-yillar oralig'i tahlil qilingan. Aholini go'sht-sut mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlari xususida to'xtalib o'tilgan. Qoramolchilik tarmog'ini rivojlantirish uchun taklif va tavsiyalar keltrilgan.

**Kalit so'zi:** qishloq xo'jaligi, qoramolchilik, go'sht, sut, mahsulot, rivojlantirish, joylashtirish.

## ECONOMIC AND GEOGRAPHICAL ASPECTS OF THE CATTLE BREEDING DEVELOPMENT IN NAVOI REGION

**Khudoyberdiyeva Iroda**

**Annotation:** This article examines the role of the Navoi Regions' livestock sector in the republic. In terms of the number of cattle in the region, the period 2000-2020 is analyzed. The needs of the population in meat and dairy products were discussed. Suggestions and recommendations for the development of the cattle industry are given.

**Keywords:** agriculture, cattle breeding, meat, milk, products, development, placement.

Bugungi kunda mamlakatimizda qishloq xo'jaligining asosiy yetakchi tarmog'laridan biri chorvachilikdir. Mamlakatimizda chorvachilik tarmoqlarini joylashtirish, hududlarning tabiiy va iqtisodiy-ijtimoiy geografik xususiyatlarini hisobga olish, ko'p tarmoqli chorvachilikni rivojlantirish va ularning ixtisoslashuvi hamda hududiy tarkibini takomillashtirish bo'yicha qator chora-tadbirlar amalga oshirilmoqda.

O'zbekistonda olib borilayotgan islohotlarda Prezident Sh.M.Mirziyoyev - yerimizda mavjud tabiiy resurslardan tajribalarimiz, ilm salohiyatimizni ishga solib, yuqori texnologiyalar asosida agrar sektorni yalpi va tizimli transformatsiya qilish va shu asosida qishloq xo'jalik sohasi mamlakatimiz iqtisodiyotining asosiy bo'g'iniga aylantirish bosh maqsadimizdir – deb izohlaydi [1]. Bu vazifalarni amalga oshirishda 2020-2030-yillar uchun mo'ljallangan «Qishloq xo'jaligini

rivojlantirish strategiyasi» ishlab chiqilib, unda qishloq xo'jaligi va oziq-ovqat hamda qishloqlarni keyingi o'n yilda rivojlantirish rejasini amalga oshirish ko'zda tutilgan. Shu asnosida mamlakatimizda agrar qishloq xo'jaligi tarmoqlarini rivojlantirish, bu borada qishloq xo'jalik mahsulotlarini etishtirishni, ishlab chiqarishni yuqori darajada tashkil etish va ularni davlat tamondan qo'llab-quvvatlash, ixtisoslashuvini takomillashtirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shuning uchun ham hozirgi vaqtda sifatli, ekalogik toza mahsulotlarni etishtirish, ko'paytirish, chorvachilik tarmoqlarini joylashtirishning hududiy jihatlari orqali qishloq joylarda ijtimoiy sohalarni yaxshilash yangi ish o'rinlarini tashkil etish va aholini ish bilan ta'minlash, yer resurslaridan samarali foydalanish dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Chorvachilik tarmoqlarini rivojlantirishning asosiy sabablaridan aholini yuqori kaloriyali oqsillarga boy oziq-ovqat mahsulotlari ya'ni go'sht, sut mahsulotlari bilan taminlash bo'lgan.

Respublikada Navoiy viloyat chorva hayvonlar soni va ishlab chiqarilayotgan mahsulotlari hajmi va mahsuldorligi bilan o'z o'rnini va mavqeiga ega hudud hisoblanadi. Qishloq xo'jalik tarmoqlarini joylashtirish va qishloq xo'jalik mahsulotlari ishlab chiqarishni ixtisoslashtirishda hududning tabiiy sharoitini va tabiiy va iqtisodiy geografik o'rnini har tamonlama hisobga olish talab etiladi. Bu orqali hududda qishloq xo'jalik tarmoqlarini va chorvachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni rivojlantirish, takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Navoiy viloyatining tabiiy sharoiti, tabiiy va iqtisodiy geografik o'rnini jihatidan qishloq xo'jaligi chorvachilikka ixtisoslashgan bo'lib, bu hududda qoramolchilik, yilqichilik, tuyachilik, baliqchilik va tarmoqning noyob va eng serdaromad turi qorako'lchilik tarmog'i ham shakllangan. Chorvachilik tarmoq turlariga qarab hududlarda turlicha rivojlangan qorako'lchilik cho'l zonasida keng tarqalgan bo'lsa yaylov zonalarida ko'proq qoramolchilik va shu bilan birgalik qo'ychilik va echkichilik shakllangan.

Tabiiyki, chorvachilikka ixtisoslashgan mintaqalarda yem-xashak bazasi mustahkam bo'lmog'i lozim. Biroq, Navoiy viloyatda asosan yaylov chorvachiligi rivojlangan[2]. Qoramollarni yaylovlarda pada qilib boqish, iqtisodiy jihatdan katta ahamiyatga ega bo'lib, uning afzalligi mollar oyoq ostidagi o't-o'lanlar bilan oziqlanadi va mahsuldorligi oshadi. Bunda inson mehnati juda kam talab etiladi. Podalarni o'tlatishda faqat cho'ponlar mehnat qilishadi. Yil mobaynida mollar 5-6 oy boqilib, uning mahsuldorligini oshirishda yaylovlarning hosildorligi, o't-o'lanlarning xilma-xilligiga bog'liq bo'ladi. Bundan tashqari mollarni qo'lda boqishga nisbatan yaylovda boqish 7-8 barobarga kam mablag' va kam kuch sarflanadi. Mollar boqiladigan yaylovlarda yetarli darajada suv bilan ta'minlanishi zarur bo'ladi.

Qoramolchilik- chorvachilikning yetakchi tarmog‘i hisoblanib, aholini oziq-ovqat mahsulotlariga ya’ni sut,-go’sht mahsulotlari bilan ta’minlashda asosiy o‘rin egallaydi. Qoramolchilikni takomillashtirishda ularning mahsuldorligi va miqdori inobatga olingan holda amalga oshiriladi. Mahsuldorlik bu mollarning go’shtdorligi, sutning sifat ko‘rsatkichi ya’ni yog‘iligi, oqsilga boyligi bilan aniqlanadi. Chorvachilik mahsulotlarini sifati samaradorlikni oshirish xizmat qiladi.

Dunyoda turli tabiiy iqlim sharoitlariga moslashgan 250 dan ortiq qoramollar turi mavjud. Ulardan yuritimizda sut yo‘nalishidagi qora-ola, qizil cho‘l, buyev sut-go’sht yo‘nalishidagi shvis, go’sht yo‘nalishidagi qozoqi oqbosh, santa- gertruda, va aberdi anguss zotlari boqiladi[3].

Viloyatning asosan markaziy va janubiy tumanlarida chorvachilikning qoramolchilik sohasi yaxshi shakllangan. Hudud qoramolchiligining keng tarqalgan turlaridan “qizil cho‘l zoti” hisoblanadi. Bu zot Ukrainaning mahsuldorligi yuqori bo‘lgan zotdor qoramollarni chatishtirish orqali keltirib chiqarilgan. Uning rangi qizil tusda bo‘ladi, mahsuldorligi esa 480-520 kg vazni tashkil qiladi, buqalari esa 800-850 kgacha tashkil qilishi mumkin. Sut mahsuldorligi 3000-3500 kgni tashkil qiladi, yog‘lilik darajasi esa 3,7%ni tashkil qiladi.

### 1-jadval

#### Navoiy viloyatida qoramollar sonining 2000-2020-yillar oralig‘ida nisbiy o‘zgarishi

Ma’muriy hududiy birliklar	Yillar					O‘zgarishlar indeksi
	2000	2005	2010	2015	2020	
Karmana	23 848,0	29 408,0	40 861,0	51 278,0	60 483	253,6
Konimex	9 448,0	10 676,0	13 126,0	16 668,0	21 758	230,3
Qiziltepa	42 048,0	52 928,0	77 360,0	104 225,0	141 716	337,0
Navbahor	34 415,0	38 973,0	51 567,0	60 279,0	76 462	222,2
Nurota	12 764,0	15 353,0	24 787,0	32 246,0	42 852	335,7
Tomdi	1 146,0	1 484,0	1 779,0	2 185,0	4 216	367,9
Uchquduq	1 780,0	2 382,0	3 011,0	3 355,0	3 438	193,1
Xatirchi	46 768,0	64 549,0	96 750,0	109 139,0	147 468	315,3
Navoiy shahar	1 617,0	1 810,0	1 982,0	2 373,0	1 956	121,0
Zarafshon shahar	553,0	766,0	813,0	2 301,0	1 301	235,3

1-jadval. Navoiy viloyati statistika boshqarmasi ma’lumotlari asosida muallif tamonidan tayyorlandi.

Navoiy viloyatida qoramolchilik tarmog'i juda tez suratlarda rivojlanib kelmoqda. 1-jadvaldan ko'rishimiz mumkinki, 2000-2020-yillar oralig'ida Navoiy viloyat hududida qoramollar soni 3,5 barobarga oshdi. Qoramolchilik Xatirchi, Qiziltepa, Navbahor, Karmana, Tomdi, Uchquduq tumalarida tez suratlarda o'sib bormoqda. Shuning bilan birgalikda go'sht-sut mahsulotlarini yetishtirish ham asosan Xatirchi, Qiziltepa, Navbahor tumanlarida o'sish darajasi yuqori.

Hududda chorva mahsulotlarini qayta ishlab chiqarish sanoatini keng yo'lga qo'yish aholini sut, go'sht mahsulotlariga bo'lgan talabini qondirish uchun asosiy vositasi hisoblanadi. Viloyat go'sht yetishtirish 2020-yilda 164,2 ming tonnani tashkil qilib, respublikada ishlab chiqariladigan umumiy go'sht hajmining 6,5% ni tashkil etdgan. Sut yetishtirishda esa 481,6 ming tonnani tashkil etib respublikada umumiy hududlar bo'yicha sut yetishtirishning 4,4% ni tashkil etgan[4].

Navoiy viloyatida qoramolchilikni ya'nada jadal rivojlantirish imkoniyatlari mavjud bo'lib, qo'yidagi taklif va tavsiyalar asosida ish tutilsa viloyat iqtisodiyotiga, eksport salohiyatiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. Bundan tashqari aholini go'sht-sut mahsulotlariga bo'lgan ehtiyojlar qondiriladi, yangi ish o'rinlar yaratiladi.

-Chorvachilik tarmoqlarini va qoramolchilik sohasini yaxshi biladigan malakali kadrlar tayyorlash.

-Chorvachilik mahsulotlarini qayta ishlash va tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarish uchun zamonaviy texnologiyalar mavjud korxonalarni tashkil etish.

-chorva xo'jaliklarini huquq manfaatlarini himoya qilish, kichik va o'rta tadbirkorlikda go'sht va sut yetishtirishni qo'llab quvvatlash uchun tadbirkorlarga imtiyozli kreditlar ajratish, mahsulotlarni sifati buzilmagan holatda iste'molchiga yetkazishda transport infratuzilamasin yaxshilash.

-Qish mavsumi uchun yem-hashak bazasini mustahkamlash.

#### **Foydalanilgan adabiyotlar**

1. Mirziyoyev Sh.Sh. "Yangi O'zbekiston demokratik o'zgarishlar, keng imkoniyatlar va amaliy ishlar mamlakatiga aylanmoqda". T: O'zbekiston, 2021. -27 b
2. Soliyev A.S. O'zbekiston iqtisodiy va ijtimoiy geografiya. Toshkent-2014.-231b
3. Ikromov.T.H Chorvachilik asoslari.Toshkent-2001.174-b
4. [www.stat.uz](http://www.stat.uz)